

SHARTNOMA № 5

MAHSULOTNI SOTISH VA XARID QILISH

«27» yanvar 2022-yil

Farg'ona sh

Ushbu shartnoma bir tomondan nizomga asosan ish yurituvchi **“FARGONA GARANT MEDTEXNIKA”** xususiy korxonasi (kelgusida **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** deb ataladi) nomidan rahbar **Boltaboyev D.X.** va ikkinchi tomondan nizomga asosan ish yurituvchi **Farg'ona tumani Tibbiyot birlashmasi** (kelgusida **«Buyurtmachi»** deb ataladi) nomidan rahbar **E.A.Gulomov** tomonidan quyidagilar to'g'risida tuzildi:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** mahsulotni ushbu shartnoma shartlari bo'yicha yetkazib berishga, **«Buyurtmachi»** esa shartnoma shartlari asosida uni qabul qilib olishga majbur.

Mahsulot assortimenti va bahosi (spetsifikatsiyasi)

№	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi	NDS		Su
						Stavk a%	Summa	
1	HBS Ag B	Dona	250	12 000	3 000 000			
2	HBS Ag B	Dona	300	15 000	4 500 000			
3	Tsoliklon ABO	Nab	1	300 000	300 000			
	Jami:				7 800 000			

1.2 Shartnomaning umumiy summasi (7 800 000) yetti million sakkiz yuz ming so'mni tashkil etadi.

2. BAHO VA TO'LOV TARTIBI

2.1. Mahsulot uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2. **«Buyurtmachi»** shartnoma umumiy summaning 30% i ya'ni 2 340 000 so'mni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 15 bank ish kuni mobaynida, qolgan qismi ya'ni 70% 5 460 000 so'mni **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** mahsulotni yetkazib bergan kundan boshlab 15 bank ish kuni davomida **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** ning bank hisob raqamiga o'tkazib berishi shart.

3. MAHSULOT YETKAZIB BERISH MUDDATI VA TARTIBI

3.1. **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** mahsulotni hisob raqamiga avans mablag'i kelib tushgan kundan 5 bank ish kunida yetkazib beradi.

3.2. Mahsulot **«Mahsulot yetkazib beruvchi»** ni transportida tashiladi.

3.3. Mahsulot hisob varoq fakturaga imzo qo'yib **«Buyurtmachi»** tomonidan qabul qilib olgan vaqtdan boshlab **«Buyurtmachi»** mulkiga aylanadi.

4. MAHSULOT TOPSHIRISH VA QABUL QILISH

4.1. «**Buyurtmachi**» vakolatli shaxsi qabul qilib olish jarayonida mahsulotning ishga yaroqliligini, sifatini, miqdori jixatidan shartnomaga mos kelishini tekshirib olishi lozim. Mahsulot to'liq qabul qilib olingandan so'ng mahsulotni saqlash javobgarligi «**Buyurtmachi**» vakolatli shaxsi zimmasiga o'tadi.

5. MAHSULOT SIFATI

5.1. Mahsulot sifati O'zbekiston Respublikasi Davlat standartlari talablariga javob berishi shart.

5.2. Mahsulot transportda tashib ketilishi uchun qulay qilib jihozlanishi lozim.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. «**Buyurtmachi**» shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan to'lovni belgilangan muddatdan kechiktirib yuborgan holda har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summaning 0,4 % i miqdorida peniya to'laydi. Lekin to'langan peniyaning umumiy miqdori kechiktirilgan mahsulot to'lov summasini qiymatining 50% dan ortik bo'lmasligi lozim.

6.2. «**Mahsulot yetkazib beruvchi**» mahsulotni shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan muddatda yetkazib bermagan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan mahsulot qiymatining 0,5 % i miqdorida peniya to'laydi. Lekin to'langan peniyaning umumiy miqdori yetkazib berilmagan mahsulot qiymatining 50 % i dan oshib ketmasligi lozim.

7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Nizoli vaziyatlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

7.2. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan, belgilangan sifatlardagi hamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda ayibdor taraf ushbu mahsulot qiymatining 20 % i miqdorida jarima to'lashga sabab bo'ladi.

7.3. Nizoli vaziyatlar tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal etilmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudlari orqali hal etiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Shartnoma **31.12.2022** yilgacha haqiqiy deb hisoblanadi.

9. FORS – MAJOR

9.1. Agarda ushbu shartnoma shartlarini bajarishga xalal beruvchi yengib bo'lmas kuchlar – urush e'lon qilinishi, zil-zila va suv toshkini, yongin va boshqa tabiiy ofatlar yoki O'zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan aloxida qaror va farmoyishlar natijasida yuzaga kelsa u holda tomonlar ushbu yengib bo'lmas kuchlar ta'siri vaqtida shartnomaviy javobgarlikdan ozod etiladilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuziladi hamda tomonlarning har birida 1 (bir) nusxadan saklanadi.

10.2. Shartnoma ikki tomonlama to'liq tasdiklanib va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 2-kichik bo'limi 27-bob 366-moddasiga asosan shartnoma

Gaznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng to'liq yuridik kuchga ega deb hisoblanadi.

10.3. Tomonlarning yuridik manzillari yoki bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda 3 bank ish kuni davomida bir-birlarini ogohlantirishlari shart.

10.4. Tomonlardan biri ikkinchisining yozma ravishda tasdiqlangan rozilik xatisiz shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxs zimmasiga o'tkazolmaydi.

10.5. Shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama to'liq tasdiqlanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

10.6. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilinishi taraflarning yozma kelishuviga asosan bekor qilinadi.

11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA BANK REKVIZITLLARI

«MAXSULOT YETKAZIB BERUVCHI»

“FARG’ONA GARANT MEDTEKNIKA” X/K

(etkazib beruvchi nomi)

Manzil: *Fargona sh. Yuksalish ko'cha 81 A*

Xis/r: 20 20 8000 100952 447 001

Bank: "TRASTBANK" XAB BANKINING
FARGONA FILIALI

INN: 305914511

OKONX: 46460

Tel: +99873 244-97-00, +99895 400-49-58

Raxbar: Boltaboyev D.X.



«BUYURTMACHI»

Farg'ona tumani Tibbiyot birlashmasi

(budjetdan mablag oluvchi nomi)

Manzil: *Vodil qishlog'I Quvonch ko'cha №96*

Sh/X: 100022860302337073101054009

G'aznachilik Bo'linmasi Moliya Vazirligi

G'azna x/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent shaxar Markaziy b

MFO: 00014 G'aznachilik bo'linmasi

STIRi: 201122919

Tel/Faks; 73-353-17-90

Raxbar: E.A. Gulomov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDAGI HUQUQIY
XULOSA
№ JV7736218254**

1. Loyihaning turi: Hhartnoma

2. Loyihaning nomi: “FARGONA GARANT MEDTEXNIKA” xususiy korxonasi bilan Farg’ona tumani Tibbiyot birlashmasi o’rtasida tuzilgan 2022-yil ____-yanvardagi 5-sonli "Mahsulotni sotish va xarid qilish" to'g'irisida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg’ona tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 20-yanvar kuni ishlab chiqilib, dasturga kiritilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif:

Loyiha amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.
Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Farg’ona tumani yuridik xizmat
ko’rsatish markazi bosh yuriskonsulti



K. Yakubova

2022-yil 20-yanvar